



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd October, 2025

TIBBIYOT TALABALARIGA LOTIN TILINI O'QITISH METODIKASI

Usmonova Dilyayra Rustamovna

Toshkent Davlat tibbiyot universiteti Lotin tili

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot talabalariga lotin tilini o'qitish metodikasi yoritilgan bo'lib, asosiy e'tibor grammatik qoidalarni o'zlashtirish va ularni tibbiy terminologiya bilan bog'lashga qaratiladi. Lotin grammatikasi orqali tibbiy atamalarni to'g'ri o'qish, yozish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Maqolada amaliy mashqlar, grammatik tahlil usullari hamda tibbiy matnlarni o'qishda qo'llaniladigan metodlar o'r ganiladi. Shuningdek, grammatikani puxta egallash talabalarda terminologik savodxonlikni rivojlantirishi va tibbiy sohada professional nutqni shakllantirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: lotin tili, tibbiy terminologiya, grammatika, metodika, o'qitish, tibbiyot talabalar, amaliy mashq.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida lotin tili tibbiyot sohasida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tibbiy terminlarning asosiy qismi aynan lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, ularni chuqur o'zlashtirish kelajakdagi mutaxassisning professional faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shu bois tibbiyot oliygohlarida lotin tilini o'qitishda grammatikaga asoslangan metodik yondashuv alohida dolzarblik kasb etadi.

Lotin tilining grammatik tizimi tibbiy terminologiyani anglash, atamalarni to'g'ri qo'llash va yozishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ularning kelishiklar bo'yicha o'zgarishi, sifatlarning kelishuvi, fe'llarning shakllari va prefiks-suffikslarning qo'llanishi tibbiyot talabalariga yangi so'zlarni mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur ishning dolzarbligi shundan iboratki, lotin tilini o'qitishda grammatikaga tayangan holda metodik uslublarni ishlab chiqish orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallaydi. Bu esa ularning kelajakdagi



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd October, 2025

kasbiy faoliyatida tibbiy matnlarni to‘g‘ri o‘qish, yozish va tushunishga keng yo‘l ochadi.

Ishning maqsadi tibbiyot talabalariga lotin tilini o‘qitishda grammatik yondashuv asosida samarali metodikani ishlab chiqish va uni amaliy misollar orqali asoslab berishdir.

ASOSIY QISM

Tibbiyot talabalariga lotin tilini o‘qitishda grammatik yondashuv eng samarali usullardan biridir, chunki tibbiy terminlarning katta qismi grammatik strukturalar asosida shakllangan.

Amaliyotda birinchi navbatda otlarning kelishiklari bilan ishlash muhim. Masalan, anatomiya fanida organ nomlari doimo ma’lum kelishikda qo‘llanadi: “musculus biceps brachii” birikmasida “brachii” so‘zi genitiv kelishigida qo‘llanib, “qo‘lning ikki boshli muskuli” degan ma’noni beradi. Talabalarga bu kabi misollarni tahlil qildirish orqali ular grammatik shakl va mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikni amalda anglaydilar.

Ikkinci amaliy jihat sifatlarning kelishuvi. Masalan, “vena cava superior” birikmasida sifat (“superior”) otdan keyin kelib, jins va son bo‘yicha unga moslashadi. Talabalarga tibbiy matnlarni o‘qishda sifat va otning grammatik kelishuvini aniqlash topshirig‘i berilsa, ular har bir terminning aniq ma’nosini to‘g‘ri tushunishga o‘rganadilar.

Uchinchchi muhim yo‘nalish fe’l shakllari va terminologiyadagi prefiks-suffikslar. Masalan, “inflammatio” (yallig‘lanish) so‘zi fe’l negiziga suffiks qo‘shish orqali hosil qilingan. Shu orqali talabalarga tibbiy terminlarni grammatik tahlil qilish topshirilsa, ular yangi so‘zlarni o‘zlari tahlil qilib, lug‘atdan qaramasdan ma’nosini topishga o‘rganadilar.

To‘rtinchi amaliy metod so‘z yasash modellarini o‘rgatish. Masalan, “cardiologia” so‘zida “cardio” (yurak) va “logia” (fan) qismlari mavjud. Grammatik yondashuv orqali talabalar “neurologia”, “dermatologia” kabi boshqa so‘zlarni mustaqil tuzishlari mumkin. Bu usul ularda ijodiy va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini rivojlantiradi.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd October, 2025

Beshinchi amaliy topshiriq lotincha tibbiy matnlarni tarjima qilish. Masalan, talabaga “fractura claviculae” birikmasi beriladi. U grammatik bilimlari asosida so‘zlarni tahlil qilib, “yelka suyagining sinishi” tarzida tarjima qiladi. Bunday amaliy mashqlar nafaqat grammatikani mustahkamlaydi, balki talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham bevosita foydali bo‘ladi.

Shuningdek, talabalarni diagnostik yozuvlarni o‘qishga o‘rgatishda ham grammatikaga asoslanish muhimdir. Tibbiy hujjatlarda qisqa lotincha iboralar qo‘llanadi, masalan, “status praesens” yoki “diagnosis principalis”. Bu kabi terminlarni grammatik jihatdan tahlil qilish talabalarni tibbiy amaliyotdagi hujjatlar bilan ishslashga tayyorlaydi.

Shunday qilib, amaliy misollardan ko‘rinib turibdiki, grammatikaga asoslangan metodika tibbiyot talabalariga lotin tilini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi.

Otlarning kelishiklarda qo‘llanilishi

Lotin tilida otlarning kelishiklar bo‘yicha o‘zgarishi tibbiyotda atamalarni to‘g‘ri shaklda qo‘llash uchun muhimdir. Masalan:

vena cava (kavak vena) Nominativda ishlatsa, “asosiy nom” ma’nosini beradi.
venae cavae Genitiv shaklida “kavak venaning” deb tarjima qilinadi. Amaliy mashq: Talabalar anatomiya darsida skelet yoki tomir nomlarini lotincha barcha kelishiklarda yozish topshirig‘ini bajaradi. Masalan: arteria carotis communis (“umumiy uyqu arteriyasi”) so‘zini barcha kelishiklarda ishlatib ko‘rsatish. Bu orqali grammatikani amalda tibbiy atamalar bilan bog‘lash imkoniyati tug‘iladi.

Sifatlarning jins va son bo‘yicha moslashuvi

Lotin tilida sifat ot bilan kelishik, son va jinsda mos kelishi kerak. Masalan:

musculus longus-uzun mushak (birlik, erkak jins).

musculi longi-uzun mushaklar (ko‘plik, erkak jins).

vena magna-katta vena (ayol jins).

Amaliy mashq: Talabalarga skelet mushaklari yoki qon tomirlari rasmlari berilib, ularning lotincha nomlarini to‘g‘ri jins va son bilan qo‘llash topshiriladi. Shunda ular grammatik qoida bilan real anatomik obyektni bog‘lashni o‘rganadi.

Retsept tilida grammatik strukturadan foydalanish

Retsept yozishda lotin tilidagi grammatik shakllar alohida ahamiyatga ega. Masalan:



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd October, 2025

Rp.: Solutio Natrii chloridi 0,9% 200 ml. Bu yerda “Natrii chloridi” genitiv kelishikda qo‘llangan va “natriy xloridining eritmasi” degan ma’noni beradi.

Amaliy mashq: Talabalarga grammatik struktura asosida retsept qismlarini tahlil qilish va yangi retsept yozish vazifasi beriladi. Masalan: Unguentum Zinci rux moyi, Tabulettae Paracetamoli paratsetamol tabletkalari.

Fe’llarning amaliy qo‘llanilishi

Lotin tilida fe’llar tibbiyatda buyruq shaklida keng qo‘llanadi. Masalan: Misce - aralashtir.

Da - ber.

Repetatur - takrorlansin.

Amaliy mashq: Talabalarga dori tayyorlash uchun zarur bo‘lgan buyruqlar beriladi va ular fe’llarni to‘g‘ri shaklda qo‘llab yangi retsept yozadilar. Masalan: Misce, fiat pulvis (“aralashtir, kukun hosil bo‘lsin”).

Klinik iboralar va tashxis yozish

Lotin tili shifokorlarning qisqa va aniq ifodalarida ham qo‘llaniladi. Masalan: status praesens - hozirgi holat.

diagnosis certa - aniq tashxis.

fractura humeri dextri - o‘ng yelka suyagining sinishi.

Amaliy mashq: Talabalar bemor tarixi yozishda qisqa lotincha iboralardan foydalanadi va grammatik jihatdan tahlil qiladi. Masalan, ulcus ventriculi chronicum surunkali me’dada yarasi.

Qo‘shma atamalar bilan ishslash

Lotin tilida kasallik nomlari ko‘pincha ot va sifatdan tashkil topadi. Masalan: pneumonia acuta - o‘tkir zotiljam.

diabetes mellitus - shirin (qandli) diabet.

hepatitis viralis - virusli hepatit.

Amaliy mashq: Talabalarga real kasallik tarixidan parcha beriladi, ular esa undagi lotincha kasallik nomlarini grammatik jihatdan tahlil qilib, yangi misollar tuzadilar. Ko‘rib turganimizdek, har bir grammatik qoida tibbiy terminologiya va amaliy vaziyatlar bilan bog‘lanadi. Bu usul orqali talabalar grammatikani nazariy qoidalar sifatida emas, balki kasbiy faoliyatlarida bevosita ishlatadigan vosita sifatida o‘zlashtiradilar.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd October, 2025

XULOSA

Tibbiyot talabalariga lotin tilini o‘qitishda grammatikani amaliy misollar bilan bog‘lash eng samarali usul hisoblanadi. Chunki talabalar qoidani kitobdan o‘qibgina emas, balki uni dars jarayonida real termin, retsept, tashxis yoki klinik ibora orqali o‘z faoliyatida ishlatishni o‘rganadilar.

Masalan, otlarning kelishiklarda o‘zgarishi anatomiya atamalarini to‘g‘ri yozishga yordam beradi, sifatlarning jins va son bo‘yicha moslashuvi mushak va suyak nomlarini to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlaydi, fe’llarning buyruq shakllari esa retsept yozishda zaruriy bo‘ladi. Shuningdek, klinik iboralar va kasallik nomlarini lotin tilida grammatik jihatdan to‘g‘ri shaklda ifodalash shifokor uchun ham, talabalar uchun ham amaliy ko‘nikma yaratadi.

Shunday qilib, lotin tili grammatikasini tibbiyot sohasiga bog‘lab o‘qitish nafaqat nazariy bilim beradi, balki talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авербух Т.В. Методика преподавания латинского языка для студентов медицинских вузов. Москва: Академия, 2020.
2. Рубинштейн С.Г. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Санкт-Петербург: Специальная литература, 2019.
3. Холодная Л.М. Практическая грамматика латинского языка для медиков. Казань: Казанский университет, 2021.
4. Юрченко О.А. Методические основы обучения латинскому языку в медицинских вузах. Киев: Вища школа, 2018.
5. Гаврилова Н.П. Латинская терминология в клинической практике. Новосибирск: Наука, 2022.